Ekspertlarning fikriga ko'ra, migrantlarning huquqlarini himoya qilish va ta'minlash, xavfsiz va tashkil etilgan migratsiya uchun sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining migratsiya sohasidagi vakolatli organlari bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning migratsiya organlari rahbarlari kengashi bilan o'zaro hamkorlik doirasida migratsiya siyosati sohasidagi masalalarni muvofiqlashtirish va hal etish ta'minlanmoqda [2].

Kengash o'z faoliyatida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining migratsiya sohasidagi asosiy hujjatlariga amal qiladi. Ushbu hujjatlar qatoriga 1994-yildagi «Mehnat migratsiyasi va mehnat migrantlarining ijtimoiy himoyasi sohasida hamkorlik to'g'risida»gi Bitim, 1998-yildagi «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash sohasidagi hamkorligi to'g'risida»gi Bitim, 2005-yildagi «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning odam savdosi, inson organlari va to'qimalari savdosiga qarshi kurash sohasidagi hamkorligi to'g'risida»gi Bitim, 2011-yildagi «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar hududiga kiruvchi uchinchi davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni yagona ro'yxatga olish tizimi to'g'risida»gi Bitim va boshqa hujjatlar kiradi [3].

Shuningdek, 2021-yilda mamlakatimiz ushbu sohadagi mintaqaviy hamkorlik kursini davom ettirib, «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish sohasida hamkorligi to'g'risida»gi Bitimga qo'shildi [4].

Ushbu hujjatlarda migratsiya sohasida hamkorlikning asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: muvofiqlashtirilgan migratsiya siyosatini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish; qabul qiluvchi davlat qonunchiligini hisobga olgan holda migratsiya oqimlari hajmi, yo'nalishlari va tuzilmasini migrantlar manfaatlariga muvofiq tarzda tartibga solish asosida mehnat migratsiyasini boshqarish; immigrantlarni jamiyatga integratsiya qilish va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar fuqarolarida qabul qiluvchi mamlakat qonunchiligi, tili va madaniyatiga hurmat munosabatini shakllantirish; odam savdosiga qarshi kurashishni davom ettirish; readmissiya bo'yicha kelishuvlarni tuzish va boshqalar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining migratsiya organlari o'rtasidagi hamkorlik masalalari Kengash yig'ilishlari doirasida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlarda O'zbekiston faol ishtirok etmoqda. Masalan, 2023-yil 28-sentyabr kuni Toshkent shahrida Kengashning yigirma yettinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi migratsiya vaziyati, migratsiya sohasida milliy qonunchilikka kiritilgan o'zgarishlar va qonun ijrosi amaliyoti, vakolatli organlarning noqonuniy migratsiyaga qarshi qaratilgan profilaktik, tezkor-qidiruv tadbirlari va maxsus operatsiyalarni o'tkazish bo'yicha tajribasi kabi 14 ta masala muhokama qilindi [5].

Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida migratsiya sohasidagi hamkorlik

Mintaqaviy migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini tahlil qilishda Shanxay hamkorlik tashkilotiga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Shanxay hamkorlik tashkiloti doimiy faoliyat ko'rsatuvchi mintaqaviy xalqaro tashkilot bo'lib, 2001-yil iyun oyida tashkil etilgan.

Shanxay hamkorlik tashkilotining mintaqaviy aksilterroristik tuzilmasi ijroiya qo'mitasi direktori o'rinbosari N.Turдумamatov ta'kidlashicha, Shanxay hamkorlik tashkilotining dastlabki vazifalari Markaziy Osiyoda terrorchilik harakatlariga, separatizm va ekstremizmga qarshi qaratilgan o'zaro mintaqaviy harakatlarni muvofiqlashtirishdan iborat bo'lgan [6]. 2002-yil iyun oyida Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari rahbarlari sammitida tashkilot Nizomi imzolandi (ushbu Nizom 2003-yil 19-sentyabrda kuchga kirgan). Ushbu asosiy ustav hujjati tashkilotning maqsadlari va prinsiplarini, uning tuzilmasi va asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

2003-yil sentyabr oyida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar hukumat rahbarlari 20 yilga mo'ljallangan Ko'p tomonlama hamkorlik dasturini imzoladi. Uning natijasida Shanxay hamkorlik tashkilotining faoliyati keng ko'lamli iqtisodiy yo'nalishga ega bo'ldi. Uzoq muddatli maqsad sifatida Shanxay hamkorlik tashkiloti hududida erkin savdo zonasini tashkil etish nazarda tutilgan bo'lsa, qisqa muddatli istiqbolda savdo va investitsiya sohalarida qulay sharoitlar yaratish jarayonini faollashtirish belgilangan [7].

Migratsiya masalalari ushbu tashkilot doirasida separatizm, terrorizm, odam savdosi, qurol-yarog' va giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurash nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Shu munosabat bilan, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida migratsiya masalalarini tartibga soluvchi alohida hujjat qabul qilinmagan. Asosiy e'tibor odam savdosiga qarshi kurashishga qaratilgan.

Olmaota jarayoni va migratsiya masalalari

Yana bir mintaqaviy maydon 2010-yilda ilgari surilgan Olmaota jarayonidir. Bu Markaziy Osiyodagi qochqinlarni himoya qilish va xalqaro migratsiya bo'yicha mintaqaviy maslahatlashuv jarayoni bo'lib, unda Ozarbayjon, Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiya ishtirok etadi. Markaziy Osiyoda qochqinlarni himoya qilish va xalqaro migratsiya bo'yicha birinchi mintaqaviy konferensiya 2011-yil 14-16-mart kunlari Olmaotada bo'lib o'tdi.

Konferensiya ishtirokchilari aralash migratsiyada ishtirok etuvchi shaxslarni himoya qilish bo'yicha milliy siyosatlarni ishlab chiqish zarurligini e'tirof etib, odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish choralari ko'rishga chaqirdilar, jabrlanganlarni samarali himoya qilishni ta'minlash va aralash migratsiya muammolarini hal qilish bo'yicha qarorlar qabul qilish muhimligiga e'tibor qaratdilar [8].

Konferensiya yakuni bo'yicha Olmaota deklaratsiyasi qabul qilindi. U mintaqaviy muloqot va amaliy hamkorlikni rivojlantirish, konferensiya natijalarini keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan.

2012-yilda ishtirokchi davlatlarda vazir o'rinbosarlari darajasida Milliy muvofiqlashtiruvchilar tayinlandi va Mintaqaviy hamkorlikning doira dasturi hamda Mintaqaviy harakatlar rejasi ma'qullandi.

Olmaota jarayoni 2013-yil 5-iyun kuni qochqinlarni himoya qilish va xalqaro migratsiya bo'yicha vazirlar konferensiyasi davomida rasmiy ravishda joriy etildi. Konferensiya yakunlari bo'yicha qabul qilingan xabarnomada davlatlar aralash migratsiya harakatlari tufayli Markaziy Osiyo mamlakatlarida yuzaga kelgan ko'plab muammolarga muloqot, amaliy hamkorlik va inson huquqlarini ta'minlash, xalqaro himoyaga muhtoj shaxslarni himoya qilish, qochqinlar bilan bog'liq uzoq muddatli yechimlar ishlab chiqish orqali javob berish bo'yicha kelishuvga erishganliklari qayd etildi [9].

O'zbekiston Olmaota jarayonining a'zosi emas. Bizning fikrimizcha, O'zbekistonning mazkur Qochqinlarni himoya qilish va xalqaro migratsiya bo'yicha Hukumatlararo maslahat mexanizmiga qo'shilishi yoki qo'shilmasligidan qat'iy nazar, xalqaro migratsiya va qochqinlarni himoya qilish masalalari bo'yicha har qanday muloqotga ochiqligi barcha taraflarga ma'lum. Qolaversa, o'tgan davr mobaynida, O'zbekiston hukumati tomonidan harakatdagi shaxslarga nisbatan tizimli va mukammal siyosatni amalga oshirib kelgan. Shuningdek, norasmiy migratsiya bilan bog'liq masalalarni kuzatish va hal qilish mexanizmlari takomillashtirib borildi.

Misol tariqasida Ukrainada yuzaga kelgan inqiroz tufayli u yerda ta'lim olib kelgan yoki boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanib kelgan fuqarolarimiz zudlik bilan ishchan tashkilotchilik tamoyillari asosida O'zbekistonga evakuatsiya qilindi. Natijada fuqarolarimiz huquqlari va xavfsizligi ta'minlandi, Yevropa Ittifoqi yetakchilari bu sa'y-harakatlarga yuqori baho berishdi.

Yana bir yaqqol misol, bu Suriya davlatidan "Mehr" operatsiyasi doirasida xotin-qizlarni va bolalarni yurtimizga qaytarish bo'yicha olib borilgan ishlardir. Mazkur amaliyot BMT tomonidan yuqori baholanib, Toshkent tajribasi maqomini berishga sabab bo'ldi.

Bundan tashqari, mustaqilligimizning ilk yillari, hamda keyingi davrlarda ham, qushni davlatlarda yuzaga kelgan inqirozli holatlar tufayli, O'zbekiston hududida ushbu davlatlardan doimiy yoki vaqtinchalik asosda qochqinlar joylashtirilgan va ularning xavfsizligi ta'minlangan.

Shu bois, deklarativ ruhdagi kelishuvlarga qo'shilish yoki qo'shilmasik masalasiga oydinlik kiritish o'rniga, migratsion oqimlar tahliliga asoslangan xalqaro–huquqiy hamkorlikni rivojlantirish pirovard maqsad etib belgilanishi lozim deb hisoblaymiz. Xususan, bugungi kunda, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo bo'lgan hamda kuzatuvchi maqomini olgan davlatlar hududlarida mintaqada kuzatilayotgan migratsion oqimlarning sezilarli qismi taalluqli ekanligi barchaga ma'lum.

Biroq, aynan mazkur tashkilot doirasida migratsiya jarayonlarini tartibga solish va uni barqaror rivojlantirishga qaratilgan kelishuvlar ko'lamini ishlab chiqilmagan va bu kompleks masalalar a'zo davlatlar muhokamasi doirasida o'rta tashlanmagan.

O'zbekiston tomoni mazkur yo'nalishda aniq maqsadlarni belgilashi lozim bo'ladi va davlatlarning o'zaro manfaatlarni inobatga olgan holda, turkiy mintaqada uzviy migratsion munosabatlar zanjirini yaratish tashabbusini ilgari surishi kerak. Ushbu yo'nalishdagi ishlar mehnat, ta'lim, ekologik hamda noqonuniy migratsiya kabi jabhalarini o'z ichiga olishi mumkin deb hisoblaymiz.

Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi doirasida migratsiya sohasidagi hamkorlik

Mustaqil davlatlar hududida tashkil etilgan birlashmalar orasida Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (EOII) alohida ahamiyatga ega. YeOIIning Shartnomasida mehnat migratsiyasini tartibga solishga bag'ishlangan mustaqil bo'lim mavjud (Shartnomaning XXVI bo'limi «Mehnat migratsiyasi»). Bu bo'lim uchta moddani (96-98) o'z ichiga oladi. Shartnomaning 96-moddasida shunday deyilgan: «A'zo-davlatlar Ittifoq doirasida mehnat migratsiyasini tartibga solish siyosati yuzasidan hamkorlik qiladilar, shuningdek, a'zo-davlatlar hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun tashkillashtirilgan holda ishchilarni jalb etishga ko'maklashadilar»[10].

Shartnoma migrantlarining mehnat faoliyatini tartibga soladi. Xususan, unda a'zo-davlatlar mehnat bozorini himoya qilish cheklovlarini hisobga olmagan holda, mazkur davlatlarning fuqarolarini mehnat faoliyatiga jalb etish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan. Bunda mehnat migrantlariga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun davlatda ruxsatnoma olish talab etilmaydi.

Shartnomada mehnat migrantlarining huquqlari alohida qayd etilgan. Jumladan, ularga o'z mutaxassisligi va malakasiga muvofiq professional faoliyat bilan shug'ullanish huquqi, o'z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, mulkni himoya qilish va pul mablag'larini to'sqinliksiz o'tkazish huquqlari beriladi.

Mehnat migrantlarining ijtimoiy huquqlariga ham alohida urg'u berilgan. Migrantlar va ularning oila a'zolari ijtimoiy sug'urta, tibbiy yordam olish, ta'lim olish, kasbiy uyushmalarga a'zo bo'lish va axborotdan erkin foydalana olish huquqlariga ega.

O'zbekiston Respublikasi Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqida kuzatuvchi maqomiga ega. 2024 yilning oktyabr oyida mamlakatimiz va YeOII o'rtasida uch yillik qo'shma hamkorlik rejasi imzolaniib, savdo, transport va moliya kabi sohalarga tegishli o'zaro vazifa va maqsadlar belgilanib olingan [11].

Bundan tashqari, O'zbekiston tomoni turizm sohasini rivojlantirish maqsadida YeOIIga a'zo davlatlar fuqarolari uchun yurtimizga kirish-chiqish rejimini yanada soddalashtirish, ya'ni ichki hujjatlar asosida harakatlanish istiqbollari haqida 2024 yil dekabr oyida ma'lum qildi. Mazkur rejalar amalga oshirilishi nafaqat iqtisodiy yutuqlarni olib keladi, balki mintaqada inson mobilligi salohiyatini oshishiga va xalqlar o'rtasida munosabatlar yaqinlashishiga xizmat qiladi.

Kelgusida mazkur masala doirasida YeOIga a'zo davlatlar bilan o'zaro paritetga asoslangan kelishuvlarga erishish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonning migratsion diplomatiyasini rivojlantirish istiqbollari

Global va mintaqaviy miqyoslarda yuzaga kelayotgan geosiyosiy ziddiyatlar, mamlakatlar o'rtasida kuzatilayotgan xalqaro munosabatlardagi tub o'zgarishlar, ichki va transchegaraviy nizolar va boshqa salbiy jarayonlar har qanday davlatlar uchun qator murakkab voqealarni keltirib chiqarmoqda. Bunday sharoitlarda hayotiy muhim sohalarda davlatlar o'rtasida kelishuvlarga erishish diplomatiya sohasining pirovard maqsadi sifatida ta'riflanishi mumkin. Tashqi aloqalar mezonida migratsiyaga doir O'zbekiston maqsadlarini avvalambor quyidagi jabhalarda ko'rish mumkin:

1. Rivojlangan davlatlar bilan o'zaro manfaatli mehnat migratsiyasi va mutaxassislar tayyorlash borasida kelishuvlarga erishish;
2. Fuqarolarimiz huquqlarini har qanday mamlakat va hududda munosib himoya qilish borasida kafolatlangan hamkorlikni o'rnatish;
3. Chet elda sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o'zaro integratsiyaviy tashabbuslarni hayotga tatbiq etish;
4. O'zaro paritet asosida davlatlar o'rtasida vizasiz (yoki soddalashtirilgan) tartiblarni joriy etish.

Mohiyatan yuqorida keltirib o'tilgan yo'nalishlar o'zbek migratsion diplomatiyasining asosini tashkil etishi kerak. Ushbu maqsadlarga erishish bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilishi tabiiy holdir. Bugungi murakkab geosiyosiy sharoitlarda mamlakatimiz uchun avvalo "yumshoq huquq" bazasini shakllantirish, so'ngra esa "yumshoq huquq" negizida an'anaviy qadriyatlarga asoslangan xalqaro huquqiy kelishuvlarni tuzish ayni muddaodir[12].

Bunday sharoitda kelishuv tomonlari masala mohiyati va yechimlarini to'liq anglashga va o'zaro maqbul yondashuvlarni ishlab chiqishga tayyor bo'ladilar.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan migratsiya sohasidagi hamkorlik istiqbollari

2017-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlariga asos solindi. O'tgan davr mobaynida mazkur formatdagi sammitlar Markaziy Osiyoda integratsiyalashuv jarayonlariga turtki berib, "mintaqaviy o'ziga xoslikni anglash" konsepsiyasi rivojlanishi uchun haqiqiy poydevor vazifasini o'tab bermoqda. Ayni damda, mazkur ishlarning mahsuli sifatida qo'shnilarimiz bilan kirish-chiqish rejimida fuqarolarning ichki hujjatlar bilan harakatlanish kabi kelishuvlarga erishildi va xalqlar o'rtasidagi mobillik darajasi yangi bosqichga chiqdi.

Mintaqa davlatlarining xalqaro maydonda dolzarb va muhim masalalar yuzasidan birgalikda umumiy pozitsiyada fikr yuritishi va shu asosda xorijiy hamkor davlatlar bilan munosabatlarga kirishi va kun tartibini belgilashi katta ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekiston davrida, "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari", "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi", "Markaziy Osiyo — Germaniya", "Markaziy Osiyo — AQSh", "Markaziy Osiyo — Yaponiya", "Markaziy Osiyo — Hindiston" kabi xalqaro formatdagi sammit va hamkorlik kengashlariga asos solindi. So'nggi yillarda ushbu formatdagi 10 ga yaqin muloqotlar yuqori darajada tashkil etildi. Ularda savdo-iqtisodiy, transport-logistika, iqlim o'zgarishi va yashil iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy va boshqa masalalar yuzasidan hamkorlik muzokaralari olib borildi.

Mazkur formatdagi hamkorlik maydonlarida migratsiyaga doir masalalarni Markaziy Osiyoning yakdil pozitsiyasi sifatida olib chiqilishiga erishish zarur. Shuningdek, ekspertlar forumlari, konferensiyalar va turli xil darajadagi (vazirlik, idora va h.k.) muloqotlar ketma-ketligini jadallashtirish zarur. Bu kabi muzokaralarda migratsiya bo'yicha uzviy muammolar tahlili amalga oshirilishi, umumiy yondashuvlar ishlab chiqilishi va istiqbolli rejalarga oydinlik kiritilishi mumkin.

Ikki tomonlama migratsion hamkorlik istiqbollari

Migratsiya sohasidagi ikki tomonlama hamkorlikka kelsak, O'zbekiston migratsiyaga bo'lgan e'tiborni qaytadan kuchaytirish doirasida Rossiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Polsha, Germaniya Federativ Respublikasi kabi chet el davlatlari bilan mehnat resurslarini tashkillashtirilgan holda eksport qilish sxemalarini kengaytirmoqda. Bu tashabbuslarning maqsadi noqonuniy va tartibsiz migratsiya shakllariga muqobil bo'lgan xavfsiz va uzoq muddatli imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

Ammo, bugungi kunda mavjud bo'lgan mehnat resurslarini tashkillashtirilgan holda yollash dasturlari O'zbekistondagi mehnat migratsiyasi bo'yicha mavjud talabni oqilona taqsimlashga qodir emas va mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilishda o'z samaradorligini to'liq isbotlay olgani yo'q.

Bir necha hamkor davlatlar ishtirokida (Janubiy Koreya, Germaniya, Rossiya, Yaponiya va boshqa.) Toshkent va mamlakatning boshqa hududlarida Kasb-hunar o'quv markazlarini yaratishni nazarda tutuvchi O'zbekistonda kasbiy ta'lim imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston zamonaviy iqtisodiyot uchun migrantlarning ko'nikmalarini rivojlantirish borasida Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar bilan qator loyihalarni amalga oshirmoqda.

Ikki tomonlama munosabatlarga kelsak, Janubiy Koreya yo'nalishi yuqori maosh, yashash va mehnat shart-sharoitlarining qulayligi sababli o'zbekistonliklar orasida eng talabgor yo'nalish bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonning an'anaviy mehnat migratsiyasi yo'nalishi Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston bo'lib, bu tarixiy-siyosiy, geografik joylashuv va madaniy omillar bilan bog'liq.

Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlik doirasida Rossiya iqtisodiyotining aniq sohalarida ish beruvchilarning ishchi kuchi yetishmovchiligi muammosini hal qilish uchun tayyorlangan ishchi guruhlarini yuborishga alohida e'tibor qaratilmoqda [13].

Rossiya bilan tuzilgan kelishuvga muvofiq, O'zbekistonning Migratsiya agentligi mehnat migrantlarini tashkillashtirilgan holda tanlab olish, ularni safarga tayyorlash va o'qitish uchun mas'ul hisoblanadi. Rossiyalik ish beruvchilar esa, o'z navbatida, mehnat migrantlarini milliy standartlarga mos turar joy bilan ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish va milliy minimal ish haqidan kam bo'lmagan adolatli ish haqi taklif qilish majburiyatini oladi.

Xorijiy mehnat migratsiyasini diversifikatsiya qilishning yana bir misoli sifatida Filippin davlatini ko'rsatish mumkin. Ular mehnat migratsiyasini oilalar farovonligi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oqilona yo'naltirib, samarali foydalanmoqda [14].

Xulosa. O'zbekiston Respublikasining migratsiya sohasida mintaqaviy tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorligi tizimli asosda amalga oshirilmoqda va ko'rsatilgan sohada amaliy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, YeOI va boshqalar bilan hamkorlik doirasida ishtirokchi davlatlar bilan umumiy migratsiya siyosati yo'nalishlarini ishlab chiqish amalga oshirilmoqda.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari migratsiya organlari rahbarlari Kengashi va kelgusida Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida migratsiya bo'yicha xalqaro-huquqiy munosabatlarga kirishish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari", "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi", "Markaziy Osiyo — Germaniya", "Markaziy Osiyo — AQSh", "Markaziy Osiyo — Yaponiya", "Markaziy Osiyo — Hindiston" kabi xalqaro formatdagi sammit va hamkorlik kengashlarida migratsiyaga bag'ishlangan kun tartibini bosqichma-bosqich shakllantirib borish lozim.

Ikki tomonlama hamkorlik doirasida O'zbekistondan ishchi kuchini tashkillashtirilgan holda ishga yollashni nazarda tutuvchi kelishuvlarni imzolash nihoyatda istiqbolidir. Bunday kelishuvlarning afzalligi shundaki, ular migratsiya jarayonlarini nazorat va prognoz qilinuvchi xususiyatga ega hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'zbekiston migratsiya sohasida milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish bilan bir qatorda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi zarur.
2. O'zbekiston mintaqaviy tashkilotlar doirasida migratsiya sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi platformalardan faol foydalanishi, shuningdek Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida migratsiya masalalarini hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surishi maqsadga muvofiq.
3. O'zbekiston mehnat migratsiyasi oqimlarini diversifikatsiya qilish maqsadida nafaqat an'anaviy yo'nalishlar (Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya), balki yangi istiqbolli mehnat bozorlari (Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqalar) bilan hamkorlikni rivojlantirishi kerak.
4. Markaziy Osiyo mintaqasining yagona tashqi siyosiy pozitsiyasini shakllantirish maqsadida migratsiya sohasidagi hamkorlikni faollashtirish va "Markaziy Osiyo+" formatlarida migratsiya masalalarini kun tartibiga kiritish lozim.
5. Mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish va ularning ijtimoiy ta'minotini yaxshilash masalalarida xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, shu jumladan ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar tuzish orqali fuqarolarimiz manfaatlarini samarali himoya qilish tizimini takomillashtirish kerak.

Umuman olganda, O'zbekistonning migratsiya sohasida mintaqaviy tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorligini rivojlantirish yurtimiz fuqarolarining xavfsiz va qonuniy migratsiyasini ta'minlash, migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish va milliy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Elektron resurs: <http://www.migration.uz>
2. V Tashkente Aleksandr Gorovoy provel 27-ye zasedanie Soveta rukovoditeley migratsionnykh organov SNG Ob etom soobshchaet "Rambler". <https://finance.rambler.ru/money/51493439-v-tashkente-aleksandr-gorovoy-provel-27-e-zasedanie-soveta-rukovoditeley-migratsionnyh-organov-sng/>

3. 15 let Sovetu rukovoditeley migratsionnykh organov gosudarstv – uchastnikov Sodruzhestva Nezavisimyykh Gosudarstv [https://cis.minsk.by/news/24160/15 let sovetu rukovoditeley migratsionnykh organov gosudarstv %E2%80%93 uchastnikov sodruzhestva nezavisimyykh gosudarstv](https://cis.minsk.by/news/24160/15%20let%20sovetu%20rukovoditeley%20migratsionnykh%20organov%20gosudarstv%20%93%20uchastnikov%20sodruzhestva%20nezavisimyykh%20gosudarstv)
4. Informatsiya o zasedanii Soveta rukovoditeley migratsionnykh organov gosudarstv – uchastnikov Sodruzhestva Nezavisimyykh Gosudarstv (28 sentyabrya 2023 goda)// <https://e-cis.info/cooperation/3091/112728/>
5. V Tashkente sostoyalos zasedanie Soveta rukovoditeley migratsionnykh organov gosudarstv SNG
6. [https://cis.minsk.by/news/26139/v tashkente sostoyalos zasedanie soвета rukovoditeley migratsionnykh organov gosudarstv sng](https://cis.minsk.by/news/26139/v%20tashkente%20sostoyalos%20zasedanie%20soвета%20rukovoditeley%20migratsionnykh%20organov%20gosudarstv%20sng)
7. Turdumamatov, N. (2022). Shanxay hamkorlik tashkilotining Markaziy Osiyo xavfsizligini ta'minlashdagi roli. Mintaqaviy xavfsizlik masalalari, 5(3), 56-68.
8. «Zakonodatelstvo i politika v oblasti integratsii immigrantov. Sbornik zakonodatelstva, politiki i praktiki 19 gosudarstv v oblasti integratsii immigrantov» - Mejdunarodnaya organizatsiya po migratsii / Perevod s angliyskogo. – M.: 2011, str.
9. Ob Almatinskom protsesse <https://www.unhcr.org/centralasia/almaty-process>
10. Almatinskom protsesse https://www.iom.int/sites/g/files/tmzbdl486/files/migrated_files/What-We-Do/docs/Operating_Modalities_Ru.pdf
11. <https://eulaw.edu.ru>
12. YeOII matbuot xizmati. (2024). O'zbekiston va YeOII uch yillik hamkorlik rejasini imzoladi. [URL: <http://www.eurasiancommission.org/press/news/2024/10/15>].
13. Yegorova Ye.N. «Pravovye aspekty regulirovaniya trudovoy migratsii grajdan iz tretix stran na territorii Yevropeyskogo soyuza», «Migratsionnoe pravo» nauchno-prakticheskoe i informatsionnoe izdanie № 2 2017g.S.23-26;
14. Soglasenie mejdju Pravitelstvom Respubliki Uzbekistan i Pravitelstvom Rossiyskoy Federatsii Ob organizovannom nabore i privlechenii grajdan Respubliki Uzbekistan dlya osushchestvleniya vremennoy trudovoy deyatel'nosti na territorii Rossiyskoy Federatsii <https://lex.uz/ru/docs/3475794>
15. Zolotuxin I.N. Filippinskaya model organizatsii i upravleniya protsessami trudovoy migratsii//Oykumena.2012. № 1.S.100-102

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).